

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

INGLIZ VA O'ZBEK MEDIA DISKURSIDA MODAL VOSITALARNING ISHONCHLILIKNI SHAKLLANTIRISHDAGI LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Amonova Bahora Saloxiddin qizi

Mustaqil tadqiqotchi. e-mail: bahoraamonova3664@gmail.com ORCID:
<https://orcid.org/0009-0004-5409-3561>

Annotatsiya.

Maqolada ingliz va o'zbek media diskursida ishonchlilikni shakllantirishda modal vositalarning lingvopragmatik imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi epistemik modallik va evidensiallik birliklarining xabarni fakt, taxmin, ehtimol yoki inferensiya sifatida taqdim etishdagi rolini, shuningdek, jurnalistning axborot manbasiga nisbatan masofasini aniqlashdan iborat. Material sifatida 2026-yilda Reuters, Gazeta.uz va Kun.uzda e'lon qilingan yangilik matnlaridan tanlangan tipik kontekstlar olindi. Qiyosiy-chog'ishtirma, kontekstual-semantik va pragmatik tahlil asosida *may, might, could, reportedly, apparently, must* kabi birliklar *mumkin, ehtimol, aytilishicha, xabar qilinishicha, ko'rinishicha, shubhasiz* singari vositalar bilan funksional jihatdan qiyoslandi. Natijalar ingliz tilida modal fe'llar va ravishlar epistemik darajani ixcham kodlashini, o'zbek tilida esa analitik konstruksiyalar, shaxssiz predikativ shakllar va xabar fe'llari faolroq qo'llanilishini ko'rsatdi. Ishonchlilikning eng samarali modeli modal marker, aniq manba atributsiyasi va dalilning o'zaro uyg'unligi asosida yuzaga kelishi, tarjimada esa modal kuchning saqlanishi xabarning pragmatik maqomini buzmaslik uchun muhim ekani asoslandi.

Kalit so'zlar: media diskursi, ishonchlilik, epistemik modallik, evidensiallik, modal fe'l, modal marker, lingvopragmatika, jurnalistik pozitsiya, manba atributsiyasi.

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МОДАЛЬНЫХ СРЕДСТВ В ФОРМИРОВАНИИ ДОСТОВЕРНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ МЕДИАДИСКУРСЕ

Амонова Бахора Салохиддин кизи

Независимый исследователь.

Аннотация.

В статье проводится сопоставительный анализ лингвопрагматических возможностей модальных средств в формировании достоверности в английском и узбекском медиадискурсе. Цель исследования заключается в определении роли единиц эпистемической модальности и эвиденциальности в представлении сообщения как факта, предположения, вероятности или инференции, а также в выявлении степени дистанцирования журналиста от источника информации. Материалом исследования послужили типичные контексты, отобранные из новостных текстов, опубликованных в 2026 году агентством Reuters и изданиями Gazeta.uz и Kun.uz. На основе сопоставительного, контекстуально-семантического и прагматического анализа единицы *may, might, could, reportedly, apparently, must* функционально сопоставлены с узбекскими средствами *mumkin, ehtimol, aytilishicha, xabar qilinishicha, ko'rinishicha, shubhasiz*. Результаты показали, что в английском языке модальные глаголы и наречия позволяют компактно кодировать степень эпистемической уверенности, тогда как в узбекском языке более активно используются аналитические конструкции, безличные предикативные формы и глаголы сообщения. Обосновано, что наиболее эффективная модель формирования достоверности возникает при согласованном сочетании модального маркера, чёткой атрибуции источника и доказательной основы, а при переводе сохранение модальной силы имеет важное значение для предотвращения искажения прагматического статуса сообщения.

Ключевые слова: медиадискурс, достоверность, эпистемическая модальность, эвиденциальность, модальный глагол, модальный маркер, лингвопрагматика, журналистская позиция, атрибуция источника.

LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF MODAL DEVICES IN CONSTRUCTING CREDIBILITY IN ENGLISH AND UZBEK MEDIA DISCOURSE

Amonova Bahora Saloxiddin qizi

Independent Researcher.

Abstract.

The article presents a comparative analysis of the linguopragmatic potential of

modal devices in constructing credibility in English and Uzbek media discourse. The study aims to determine the role of epistemic modality and evidentiality markers in presenting information as fact, assumption, probability, or inference, as well as to identify the degree of journalistic distance from the information source. The research material consists of typical contexts selected from news texts published in 2026 by Reuters, Gazeta.uz, and Kun.uz. Using comparative, contextual-semantic, and pragmatic methods of analysis, such units as *may*, *might*, *could*, *reportedly*, *apparently*, and *must* are functionally compared with the Uzbek forms *mumkin*, *ehtimol*, *aytilishicha*, *xabar qilinishicha*, *ko'rinishicha*, and *shubhasiz*. The findings demonstrate that English modal verbs and adverbs encode degrees of epistemic certainty in a compact form, whereas Uzbek more actively employs analytical constructions, impersonal predicative forms, and reporting verbs. The study establishes that the most effective model of credibility construction emerges through the interaction of a modal marker, explicit source attribution, and supporting evidence. It also demonstrates that preserving modal force in translation is essential for maintaining the pragmatic status of the news report.

Keywords: media discourse, credibility, epistemic modality, evidentiality, modal verb, modal marker, linguopragmatics, journalistic stance, source attribution.

Kirish. Media axborotining ishonchliligi xabarning obyektiv voqelikka mosligi bilangina emas, balki uning qanday lisoniy shaklda taqdim etilishi bilan ham belgilanadi. To'liq tasdiqlanmagan voqea qat'iy fakt tarzida berilmasligi, taxmin darajasi va axborot manbasi ochiq ko'rsatilishi jurnalistik mas'uliyatning muhim shartidir. Shu sababli modallik media diskursining markaziy pragmatik kategoriyalaridan biri sanaladi. F. R. Palmer modallikni propozitsiyaning maqomi va voqelikka munosabatini ifodalovchi grammatik-semantik soha sifatida tavsiflaydi [Palmer 2001]. Halliday va Matthiessen esa uni so'zlovchining hukmga bo'lgan oraliq pozitsiyalarini ifodalovchi interpersonal resurs sifatida izohlaydi [Halliday, Matthiessen 2014].

Yangilik matnida ayniqsa epistemik modallik muhim: u propozitsiyaning mumkin, ehtimol, zaruriy xulosa yoki qat'iy fakt sifatida baholanishini ko'rsatadi. Bednarek yangilik diskursida epistemologik pozitsiyalash va evidensiallik jurnalistik ovoz, manba hamda dalil o'rtasidagi munosabatni tartibga solishini qayd etadi [Bednarek 2006]. Hyland terminologiyasida *hedge* vositalari hukmni yumshatib, muqobil talqin uchun imkon qoldiradi, *boosterlar* esa muallifning propozitsiyaga yuqori darajadagi sodiqligini bildiradi [Hyland 2005: 173–192]. Shunday ekan, media matnida modal vosita faqat grammatik belgi emas, balki xabarni qanchalik ishonchli, ehtiyotkor yoki bahsli tarzda qabul qilishni boshqaradigan pragmatik signaldir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA NAZARIY ASOS

Modallikning lingvistik talqini semantik, grammatik va pragmatik yondashuvlar kesishgan nuqtada shakllangan. Palmer epistemik modallikni so'zlovchining hukmning haqiqat darajasiga munosabati bilan bog'lasa, Nuyts uni bilimga asoslangan baholash va intersubektivlik bilan izohlaydi [Nuyts 2001]. Biber va hammualliflar ingliz tilida modal fe'llar, modal ravishlar hamda ehtimollikni bildiruvchi leksik konstruksiyalarning registrlar bo'yicha turlicha taqsimlanishini ko'rsatadi [Biber et al. 1999]. Bu qarashlar media diskursidagi *may*, *might*, *could*, *likely*, *apparently* kabi birliklarni faqat lug'aviy ma'no bilan emas, muallifning epistemik mas'uliyati va auditoriyaga berayotgan ishonch signali bilan ham izohlashga imkon beradi.

Evidensiallik esa bilimning qayerdan olinganini ko'rsatadi. Aikhenvald evidensiallikni axborot manbasini grammatik yoki leksik jihatdan belgilash tizimi sifatida tavsiflaydi [Aikhenvald 2004]. Chafe va Nichols tahriridagi tadqiqotlarda bilim manbasi, dalil turi va so'zlovchining ishonch darajasi o'zaro yaqin, biroq aynan bir hodisa emasligi ta'kidlanadi [Chafe, Nichols 1986]. Media matnida *reportedly*, *according to*, *officials said*, *aytilishicha*, *ma'lum qilinishicha*, *...ga ko'ra* kabi birliklar xabar kimga tegishli ekanini ochiqleydi va jurnalistning da'voga to'liq egalik qilmasligini ko'rsatadi. White bunday atributsiyani "reporter voice"ning xolislik effektini yaratadigan asosiy vositalaridan biri sifatida ko'radi [White 2012].

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Tadqiqot materiali sifatida 2026-yilda Reuters, Gazeta.uz va Kun.uzda e'lon qilingan yangiliklardan tanlangan tipik kontekstlar olindi. Mazkur materiallar miqdoriy korpus sifatida emas, modal markerlarning funksional xususiyatlarini ochib beradigan sifat tahlili namunasi sifatida ishlatildi. Tahlilda qiyosiy-chog'ishtirma, kontekstual-semantik va lingvopragmatik usullar qo'llandi. Har bir birlik uch asosiy mezon bo'yicha tavsiflandi: birinchidan, modal kuch, ya'ni hukmning past, o'rta yoki yuqori ishonch darajasi; ikkinchidan, axborot manbasining aniqligi; uchinchidan, markerning pragmatik vazifasi — ehtiyotkorlik, masofa, inferensiya, tasdiqlash yoki javobgarlikni manbaga bog'lash.

Qiyosiy tahlilda formal ekvivalentdan ko'ra funksional moslik asosiy mezon sifatida olindi. Chunki inglizcha *may* doimo o'zbekcha *mumkin* bilan, *reportedly* esa har bir holatda *xabar qilinishicha* bilan avtomatik tenglashmaydi. Kontekstga qarab bir birlikning modal kuchi va manbaga masofasi o'zgarishi mumkin. Shu bois tarjima va tahlilda grammatik shakl, leksik ma'no, axborot manbasi va kommunikativ vaziyat bir butun pragmatik konfiguratsiya sifatida ko'rib chiqildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ingliz va o'zbek media matnlarida bir xil epistemik vazifa turli strukturaviy vositalar orqali yuzaga chiqadi. Ingliz tilida *may*, *might* va *could* singari modal fe'llar ixcham grammatik vosita bo'lsa, o'zbek tilida *mumkin*, *ehtimol*, *-ishi*

mumkin, taxmin qilinmoqda, aytilishicha kabi analitik va predikativ shakllar faol. Evidensiallik bilim manbasini, epistemik modallik esa hukmning ishonch darajasini ko'rsatadi [Aikhenvald 2004]. Amaliy media matnida bu qatlamlar ko'pincha birikadi: *reportedly* yoki *xabar qilinishicha* manbaning tashqi ekanini bildirib, jurnalistning xabarga to'liq egalik qilmasligini ham ko'rsatadi [White 2003: 259–284].

Ingliz media diskursida *may, might* va *could* hali to'liq tasdiqlanmagan oqibat, reja yoki taxminni bildirib, auditoriyaga “bu fakt emas, mavjud dalillar asosidagi ehtimol” signalini beradi. Reuters materiallarida *could lead to job losses* kabi konstruksiyalar natijani oldindan qat'iy e'lon qilmay, ekspert bahosi sifatida taqdim etadi. *May* markerining razvedka ma'lumotlariga tayangan xabarlarida qo'llanishi ham taxminni fakt darajasiga ko'tarmasdan, manba bilan masofa saqlashga xizmat qiladi. O'zbek tilida bu vazifani ko'pincha *-ishi mumkin* modeli bajaradi: Kun.uzdagi “Jahonda rekord darajadagi jazirama kuzatilishi mumkin” sarlavhasi prognozni ehtimol sifatida belgilaydi. Matn ichidagi “bo'lishi ehtimoldan xoli emas”, “yuqori bo'lishi kutilmoqda” va “olib kelishi mumkin” konstruksiyalari ham taxminning turli darajalarini ketma-ket ifodalaydi.

Manbaga masofa ishonchlikning ikkinchi muhim omilidir. Inglizcha *reportedly, allegedly, apparently* va *according to* birliklari turli darajadagi evidensial masofani yaratadi. *Reportedly* xabarning boshqa manbaga tayanishini, *allegedly* esa da'voning bahsli yoki huquqiy jihatdan hali tasdiqlanmaganligini kuchliroq sezdiradi. O'zbek tilida *aytilishicha, xabar qilinishicha, ma'lum qilinishicha, qayd etilishicha, manbaga ko'ra* singari konstruksiyalar axborot uchun javobgarlikni manbaga bog'laydi. Kun.uzdagi “800 ga yaqin davlat xizmatida byurokratiya nolga tushirilishi aytiladi” materialida “taqdimotda aytilishicha” va “ma'lum qilinishicha” shakllari jurnalist bayonini rasmiy axborotga bog'laydi. Aniq institutsional manba ko'rsatilgan xabar noaniq “aytilishicha” shakliga qaraganda yuqoriroq ishonchlik effektini hosil qiladi.

Ishonchlikni shakllantirish faqat yumshatish bilan cheklanmaydi. *Certain, clearly, undoubtedly, must, data show, figures confirm* kabi birliklar yuqori epistemik majburiyatni bildiradi. Biroq kuchli marker dalil bilan qo'llangandagina ishonchni oshiradi; yetarli asos bo'lmagan qat'iylik xolislikka putur yetkazishi mumkin. O'zbek tilidagi *shubhasiz, albatta, aniq, ma'lumki* birliklari ham yuqori ishonchni ifodalaydi, ammo neytral yangilikda “ma'lumotlar ko'rsatishicha”, “rasmiy raqamlar tasdiqlaydi” kabi dalilga tayangan konstruksiyalar pragmatik jihatdan barqarorroqdir. Martin va White baholash nazariyasida bunday vositalar muallifning dialogik maydonni kengaytirishi yoki toraytirishi bilan izohlanadi [Martin, White 2005].

1-jadval / Table 1. Ingliz va o'zbek media diskursidagi asosiy modal markerlar

Modal daraja	Ingliz tili	O'zbek tili	Asosiy pragmatik funksiya
Past / ehtiyotkor	may, might, could, reportedly	mumkin, ehtimol, xabar qilinishicha	taxmin va noaniqlikni ochiq ko'rsatish
O'rta	likely, apparently, seems	ehtimol, ko'rinishicha, taxmin qilinmoqda	asoslangan ehtimol va inferensiya
Yuqori	must, certainly, clearly, confirm	shubhasiz, aniq, tasdiqlamoq	qat'iylik va verifikatsiya
Manbaviy	according to, officials said	...ga ko'ra, ma'lum qildi	javobgarlikni manbaga bog'lash

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek media diskursida modal vositalar bir xil kommunikativ ehtiyojni — axborotning epistemik maqomini aniq belgilashni — turli strukturaviy yo'llar bilan amalga oshiradi. Ingliz tilida modal fe'l predikatga bevosita ulanib, ehtimol darajasini ixcham kodlaydi. O'zbek tilida esa *-ishi mumkin* konstruksiyasi, modal so'zlar, xabar fe'llari va shaxssiz predikativ shakllar birgalikda ishlaydi. Shu tipologik farq tarjimada ekvivalentlikni faqat lug'aviy moslik bilan emas, modal kuch va kommunikativ ta'sir bilan ham baholash zarurligini ko'rsatadi.

Modal birlikning pragmatik qiymati sarlavha va asosiy matnda ham bir xil bo'lmashligi mumkin. Sarlavhada *mumkin* yoki *could* kabi markerlar o'quvchining e'tiborini saqlagan holda haddan tashqari qat'iy xulosadan qochish imkonini beradi; asosiy matnda esa ular odatda manba, raqam, ekspert bahosi yoki izoh bilan konkretlashtiriladi. Demak, media ishonchligi “kuchliroq marker — ishonchliroq xabar” kabi sodda munosabatga teng emas. Aksincha, ishonchlik ko'pincha jurnalistning noaniqlik darajasini ochiq ko'rsatishi, manbani aniqlashi va xulosa kuchini mavjud dalilga moslashtirishi orqali yuzaga keladi.

2-jadval / Table 2. Modal vositalarning qiyosiy lingvopragmatik modeli

Funksiya	English pattern	O'zbekcha model	Tarjimadagi asosiy xavf
Ehtimol	may / might + V	-ishi mumkin / ehtimol	taxminni qat'iy faktga aylantirish
Inferensiya	must / apparently	ko'rinishicha / demak	dalildan kuchliroq xulosa chiqarish
Manba masofasi	reportedly / according to	xabar qilinishicha / ...ga ko'ra	manba atributsiyasini yo'qotish
Kuchli tasdiq	certainly / confirm	shubhasiz / tasdiqlamoq	qat'iylikni ortiqcha yumshatish

Tarjimada modal kuchning saqlanishi ayniqsa muhim. Masalan, *may be* yoki *could be* shaklini o'zbekchada “bo'ladi” tarzida qat'iy berish ehtimolni faktga aylantiradi; aksincha, *confirmed* yoki *clearly established* kabi kuchli tasdiqni “ehtimol” bilan yumshatish manbaning ishonch darajasini pasaytiradi. *Reportedly* va *according to* kabi manbaviy markerlar tarjimada tushirib qoldirilsa, da'vo jurnalistning o'z fikridek ko'rinishi mumkin. Shu bois adekvat

tarjima leksik ma'noni emas, balki modal kuch, evidensial masofa va mas'uliyat taqsimotini ham saqlashi kerak.

Ishonchlilik nuqtayi nazaridan eng samarali modal marker, manba atributsiyasi va dalilning o'zaro uyg'unligidir. *Could* ekspert manbasi bilan kelganda ehtiyotkor prognoz sifatida ishonarli ko'rinadi; manbasiz *certainly* esa subyektiv qat'iylik sifatida qabul qilinishi mumkin. Xuddi shuningdek, o'zbekcha *mumkin* rasmiy ma'lumot yoki ekspert bahosi bilan bog'langanda epistemik shaffoflik yaratadi. Gazeta.uz sarlavhalaridagi "— prezident" kabi aniq manba ko'rsatkichi ham bayonning institutsional tayanchini ochadi. Demak, ishonchlilik modal birlikning alohida ma'nosidan ko'ra uning kontekst, manba va dalil bilan hosil qilgan pragmatik konfiguratsiyasida yuzaga keladi [Martin, White 2005; White 2012].

TADQIQOT NATIJALARINING UMUMLASHTIRILISHI

Tahlil asosida uchta umumiy qonuniyatni ajratish mumkin. Birinchidan, ingliz media diskursida epistemik daraja ko'pincha predikat tarkibidagi modal fe'l yoki ravish orqali ixcham ifodalanadi, o'zbek tilida esa analitik va predikativ konstruksiyalar kengroq qatnashadi. Ikkinchidan, evidensial markerning aniqligi ishonchlilikka bevosita ta'sir qiladi: nomlangan institut, mutaxassis yoki rasmiy manba noaniq manbaga qaraganda yuqori verifikatsiya effektini beradi. Uchinchidan, jurnalistik xolislik mutlaq kategoriklik bilan emas, mavjud dalilga mos modal darajani tanlash bilan bog'liq. Noaniqlikni yashirmasdan ko'rsatish ishonchni kamaytirish emas, balki epistemik shaffoflikni kuchaytirish vositasidir.

XULOSA

Ingliz va o'zbek media diskursida modallik ishonchlilikni shakllantiruvchi asosiy lisoniy-pragmatik mexanizmlardan biridir. Epistemik markerlar fakt, taxmin, inferensiya va hali tasdiqlanmagan xabar o'rtasidagi chegarani ko'rsatadi. Ingliz tilida *may*, *might*, *could*, *likely*, *reportedly* kabi ixcham birliklar ustun bo'lsa, o'zbek tilida *mumkin*, *ehtimol*, *taxmin qilinmoqda*, *xabar qilinishicha*, *ma'lum qildi* kabi analitik vositalar faol. Modal markerning ta'siri manba identifikatsiyasi va dalil mavjudligiga bevosita bog'liq: ehtiyotkorlik noaniqlikni yashirmasdan berilganda ishonchni pasaytirmaydi, aksincha, jurnalistik shaffoflikni oshiradi. Tarjimada esa modal kuchning saqlanishi zarur; ehtimolni qat'iy faktga yoki qat'iy tasdiqni ortiqcha yumshoq hukmga aylantirish xabarning epistemik maqomini buzadi. Shuning uchun media matnlarini tahlil qilish va tarjima qilishda modal marker, manba atributsiyasi va dalil birgalikda baholanishi maqsadga muvofiq.

MEDIA MATERIALLARI

1. Reuters. "Trump pauses tariffs on Canadian imports, Carney says key work remains", 18 August 2026.
2. Reuters. "US could not verify Israeli warnings of Iran plots against Trump, sources say", 13 August 2026.
3. Kun.uz. "Jahonda rekord darajadagi jazirama kuzatilishi mumkin", 16-iyul 2026.
4. Kun.uz. "800 ga yaqin davlat xizmatida byurokratiya nolga tushirilishi aytiladi", 12-may 2026.
5. Gazeta.uz. "O'zbekistonda kichik biznesni tekshirishga uch yillik moratoriy joriy etiladi — prezident", 18-avgust 2026.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aikhenvald A. Y. *Evidentiality*. – Oxford: Oxford University Press, 2004. – 452 p.
2. Bednarek M. Epistemological Positioning and Evidentiality in English News Discourse: A Text-Driven Approach // *Text & Talk*. – 2006. – Vol. 26, No. 6. – P. 635–660. – DOI: 10.1515/TEXT.2006.027.
3. Biber D., Johansson S., Leech G., Conrad S., Finegan E. *Longman Grammar of Spoken and Written English*. – Harlow: Longman, 1999. – 1204 p.
4. Chafe W., Nichols J. (eds.). *Evidentiality: The Linguistic Coding of Epistemology*. – Norwood, NJ: Ablex, 1986. – 346 p.
5. Halliday M. A. K., Matthiessen C. M. I. M. *Halliday's Introduction to Functional Grammar*. – 4th ed. – London: Routledge, 2014. – 808 p.
6. Hyland K. Stance and Engagement: A Model of Interaction in Academic Discourse // *Discourse Studies*. – 2005. – Vol. 7, No. 2. – P. 173–192. – DOI: 10.1177/1461445605050365.
7. Martin J. R., White P. R. R. *The Language of Evaluation: Appraisal in English*. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2005. – 278 p.
8. Nuyts J. *Epistemic Modality, Language, and Conceptualization: A Cognitive-Pragmatic Perspective*. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 2001.
9. Palmer F. R. *Mood and Modality*. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 236 p.
10. Safarov Sh. *Pragmalingvistika*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008. – 318 b.
11. White P. R. R. Beyond Modality and Hedging: A Dialogic View of the Language of Intersubjective Stance // *Text*. – 2003. – Vol. 23, No. 2. – P. 259–284.
12. White P. R. R. Exploring the Axiological Workings of "Reporter Voice" News Stories – Attribution and Attitudinal Positioning // *Discourse, Context & Media*. – 2012. – Vol. 1, No. 2–3. – P. 57–67. – DOI: 10.1016/j.dcm.2012.10.004.